



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No8(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 528 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education	10
<i>Alimov Jamshid Ravshanovich</i>	
Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari	16
<i>Yorkulov Zafarjon Bakirovich</i>	
Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	20
<i>Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi</i>	
O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin?	26
<i>Dilnura Rustamovna Xamrayeva</i>	
Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida	33
<i>Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich</i>	
Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari	40
<i>Rahmatova Nasiba Sobirovna</i>	
Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi	46
<i>Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna</i>	
Integrativ ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish	50
<i>Xoldavlatova Gavhar Normaxmatovna</i>	
Klaster asosida TVET tizimida pedagogik innovatsiyalar	55
<i>Sobir Azizov</i>	
Muammoli ta'lim texnologiyasi orqali talabalarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish: "muammo" divergent–konvergent o'quv sikli	57
<i>Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich, Yusupov Muxtorbek Roximovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslar	62
<i>E. E. Jumayev</i>	
Autentik materiallar asosida bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining eksperimental samaradorligi	65
<i>Jumayeva Gulxan Amrullayevna</i>	
Aleksandr Nil pedagogik ta'limotida shaxs erkinligini rivojlantirish mexanizmlari: ingliz filologiyasi talabalari misolida	71
<i>Atamirzayev Bahrom Bahodir o'g'li</i>	
TPACK modeli asosida ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning adaptiv metodik tizimi	75
<i>Omonova Maftuna Shermatovna</i>	
Multimodal vizual tayanchlar va flashcard asosidagi topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	82
<i>Sevara Alimurodova, Ayubova Saïda</i>	
Raqamlashtirish jarayonida elektron ta'lim resurslarini yaratishning metodik asoslarini takomillashtirish	88
<i>Nurmaxonov Kayrat Erpayizovich</i>	
Modulli ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari	95
<i>Poyonova Fazilat Olimovna</i>	
Individual ta'lim sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik tahlil asosida baholash	100
<i>Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida raqamli menejment tizimlarini joriy etish muammolari va ularni bartaraf etishning samarali yo'llari	106
Matnazarov Hurmatbek Egamberganovich	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	110
Sodiqov Rafikjon Turobjon o'g'li	
Bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ...	114
To'xtayeva Dilrabo Nematovna	
Inklyuziv ta'lim: mohiyati, tamoyillari	119
Choriyeva Muxlisa Jumamurodovna	
The Role of Neuromuscular Dentistry in Dental Practice	123
Turayev Alimjan	
Orthodontics' Digital Transformation (Literature Review)	128
Khusanbaeva Jasmin Shavkatovna, Xazratov A. I.	
O'zbekiston SSRda ta'lim islohotlari davrida pedagogika bilim yurtlari faoliyatida o'qituvchilarni tayyorlash jarayonlari va amaliy muammolar	136
Mamatkulova Maxfuza Kozimovna	
Application of Mechanotherapy Techniques in Oral and Craniofacial Surgical Methodologies (Literature Review)	140
Marufova Farangiz Gayratovna	
Theoretical Foundations for Developing Communicative Competence of Future Doctors	147
Nasimova Shahnoza Ziyodullayevna	
Формирование функциональной грамотности и "гибких навыков" (Soft Skills) у учащихся начальных классов в контексте реализации национальной учебной программы Узбекистана	152
Ю. С. Тажиева	
Talabalarda mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish metodlari	156
Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li	
Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi onim komponentli frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari	160
Koyshekenova Tatyana Kenesariyevna	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi	164
Qo'shaqov Farrux Furqat o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faollikni oshirishning pedagogik usullari	169
Xoldarova F. M.	
Ingliz tili darslarida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi	172
Madaminova Muzifa Shukurullo qizi	
Sport ta'limi yo'nalishidagi o'quvchilarining generativ sun'iy intellekt kompetensiyasini baholash mezonlari va indikatorlarini takomillashtirish	178
Nematova Rushana Nemat qizi	
Inklyuziv ta'lim sharoitida koxlear implantli bolalarning eshituv-nutqiy faoliyatini pedagogik tashkil etish metodikasi	184
Mirzayeva Umida Inamovna	
Umumiy o'rta ta'lim muassasasida ijtimoiy-madaniy muhitni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	188
Malikova Dilrabaxon	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	194
Temirova Shoxsanam Komilovna	
O'zbek tilidagi lingvomadaniy kollokatsiyalarning assotsiativ-semantik xususiyatlari	201
Boymirova Dilshoda Oblayor qizi	
Методы развития компетенций будущих учителей начальной школы в области создания текстов	208
Хаитова Нодира Бафроевна	

Inklyuziv maktabgacha ta'limda bolalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvida madaniy-tarixiy va ekologik yondashuvlar integratsiyasi	216
Mengliyeva Gavhar Ibrohim qizi	
Maktabgacha ta'lim jarayonida induktiv metodlardan foydalanishning xorijiy tajribasi	220
Mirazimova Muxabbat Normatovna	
Virtual muzeylar orqali tarixiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik modeli	225
To'ranazarova Muxlisaxon Davlatjon qizi	
Қорақалпоқ, туркман ва инглиз эртақларида образли нутқнинг миллий моделлари: фразеологизм, ранг ва маиший тимсоллар	230
Жепбарова Саят Курбанмиратовна, Жаумитбаева Перийзат Караматдиновна	
Statistical Analysis of Experimental Work and Evaluation of Educational Effectiveness in Teaching Bioethics	233
Salimova Malika Rashidbekovna	
Talabalarda innovatsion fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	240
Axatova Sabina Qo'shmurod qizi	
Talabalarda sport kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillar	247
Ismatov Feruz Mamarasulovich	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini integrativ o'qitish zarurati va o'ziga xos xususiyatlari	254
Fayzullayeva Xolida Axmadjon qizi	
Ingliz tilini o'rganishda motivatsiya va o'quvchilarni rag'batlantirish usullarining ahamiyati	258
Sirojov Daler Kironboyevich	
Mikrokredit tashkilotlarini vujudga kelishi va bekor bo'lishining huquqiy asoslari	263
Madumarov Talantbek Tolibjonovich, Qalandarova Mubinabonu Fayziddin qizi	
Oliy ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonlarini aksiologik modernizatsiyalashning psixologik mexanizmlari... ..	268
Taylanova Sh. Z., Turayeva Dilnoza Niyatullo qizi	
A Methodology for Using Digital Educational Technologies in Preparing Students to Teach Subject-Specific Disciplines in English in Non-Philological Fields of Study	274
Mirzayeva Khilolakhon Bakhromali kizi	
Deviant xulqli o'smirlarda konfliktli xulq shakllanishida ota-ona-farzand munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	281
Otamirzayev Muzaffar Bahodir o'g'li	
Biologiya fanidan auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishning innovatsion metodlari va ularning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyati.....	287
Xalilova Maqsad Ravshanovna	
Leading Schools for Gifted Students: Contextual Demands on the Principal and the Case for Creative Competence	293
Zarina I. Ganiyeva	
Aholi o'rtasida gipodinamiyani (kamharakatlikni) bartaraf etishda o'z-o'zini nazorat qilish usullari	297
Sharipova Faridaxon Akmaljon qizi	
Lobachevskiy geometriyasi: noevklid geometriyaning nazariy asoslari, geometrik xususiyatlari va ta'limdagi ahamiyati.....	301
Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li	
Adabiyot ta'limi jarayonida nutqiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari	305
Sulaymonova Nafisa Sattorovna	
Ritmik she'r va harakatli mashqlar yordamida 1-sinf o'quvchilarining diqqatini jamlash	311
Yadgarova Iroda Ikromovna	
Mehrli maktab o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirishning konseptual modeli.....	314
Xoliqulova Dilnoza Sheraliyevna	
Bo'lajak shifokorlarda kasbiy-kommunikativ motivatsiyani xalqaro miqyosda rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	318
Qoravoyeva Shoira Zafarjon qizi	



Pedagogik ta'limda media savodxonlikni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari	322
<i>Gulmonova Guli Anvar qizi</i>	
Pedagogik diagnostika vositalari asosida bo'lajak o'qituvchilarning individuallashtirilgan ta'limni loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligi	327
<i>Yuldashev Xusniddin Abdullayevich</i>	
Inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlash	333
<i>Bozorova Muxlisa</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida metodik faoliyat turlari.....	337
<i>Qarshibayeva Dilduza Xidirbayevna</i>	
Umumiy o'rta ta'limda o'quvchilar individual rivojlanishini baholash yo'nalishlari.....	341
<i>Alimov Azim Anvarovich</i>	
O'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etishda motivatsiya va o'zini o'zi boshqarishning psixologik roli	347
<i>Burtshova Aliya Burxonovna</i>	
Talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda pedagogik metodlarning integrativ imkoniyatlari.....	354
<i>Nazarova Vazira Bahron qizi</i>	
Tasviriy san'at ta'limida inklyuziv yondashuv va raqamli ta'lim muhitining integratsiyasi	359
<i>Shodmonova Munisa Furkatovna</i>	
Uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	365
<i>Xoliqulova Dilnoza Sheraliyevna</i>	
Jamoat transporti haydovchilarining psixoemotsional barqarorligini shakllantirishning nazariy-psixologik asoslari.....	369
<i>Ruzimatova Gulbaxor Adiljanovna</i>	
Игровые технологии как средство развития речевой активности детей с тяжёлыми нарушениями речи.....	375
<i>Шакирова Ситора Абдугануровна</i>	
Qo'l to'pi bilan shug'ullanuvchi talabalarda tezkorlik va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirishning samarali usullari.....	380
<i>Jo'rayev Nodirbek Nutfillo o'g'li</i>	
Ценностно-смысловой потенциал поэзии Анны Ахматовой в формировании языковой личности и духовно-нравственном становлении учащихся: методический аспект	385
<i>Жабборовна Гулчехра Жобириева</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida geoaxborot tizimlarini o'qitishning zamonaviy holati va rivojlanish tendensiyalari...	391
<i>Iskandarov Bayimbet Sobir o'g'li</i>	
O'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini innovatsion menejment asosida rivojlantirish yo'nalishlari	395
<i>Abdullayev Amirulla Xazratovich</i>	
Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimini takomillashtirish	399
<i>Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi</i>	
O'smirlarning ijtimoiylashuv jarayonining mazmuni va ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari.....	404
<i>Nishanbayeva Odina Xikmatillayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda kognitiv strategiyalardan foydalanish metodikasi	409
<i>Sharopova Zarnigor Tolib qizi</i>	
Assessment for Learning and Assessment of Learning: Formative and Summative Approaches in Foreign Language Education in Uzbekistan.....	415
<i>Ramazonova Feruzaxon Akbarovna</i>	
Aqli zaif boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-amaliy faoliyatini tashkil etishda sensor integratsiyadan foydalanish metodikasini takomillashtirish.....	420
<i>Tajibayeva Shaxnoza Abdumuxtorovna</i>	

Umumta'lim muassasalari rahbar kadrlarning raqobatbardoshligini baholash va samarali boshqarishning qiyosiy tahlili	425
Uzakbayeva Raxima Xojabayevna	
Nemis tilida so'zlashuvchi davlatlar va nemis adabiy tili tarixi	430
Adham Berdimurodov Musurmonovich	
Xorijiy andragogik yondashuvlarni kasbiy ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shart-sharoitlari	434
Yusupov Ulug'bek Kamalovich	
The Power of Intercultural Competence in Global Communication.....	439
Serdaliev Baxitli Xaydarovna	
Bo'lajak tarbiyachilarning badiiy tafakkurini xalq og'zaki ijodi asosida rivojlantirish metodikasi	443
Matrizayeva To'maris Jumamirat qizi	
Raqamli ta'lim transformatsiyalashu-vining pedagogik mazmuni va zamonaviy tendensiyalari.....	449
Turdaliyeva Nurjahan Abdunosir qizi	
Pedagogik ta'lim tizimida raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni.....	457
Boymirzayeva Shanoza Olimjon qizi	
The Effectiveness of a Synthetic Phonics Programme in Teaching Word Reading, Spelling and Reading Comprehension: a Critical Review and EFL Pedagogical Implications.....	465
Nishonova Zuxra Voxidjon qizi	
Talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning konseptual-metodologik asoslari: tizimli, kompetensiyaviy va faoliyatli yondashuvlar.....	471
Baydjanov Bekzod Xaitboyevich	
Biologiya ta'limida o'quvchilarning bilim va kompetensiyalarini baholashni pedagogik kvalimetriya va zamonaviy psixometrik yondashuvlar asosida takomillashtirish.....	476
Boyxonov Islomjon Abduqaxxor o'g'li	
Oiladagi nizolarni hal etishda mediatorlik faoliyatining ahamiyati.....	483
Ibaydullayeva Umida Rustamjonovna	
Xalq pedagogikasiga asoslangan kompetensiyaviy yondashuvning metodologik asoslari	487
Maqsudov Ulug'bek Qurbonovich	
Kompyuter tarmoqlari mavzusini o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning metodik imkoniyatlari	493
Po'lotova Sevinchoy Arslon qizi	
Bo'lajak filologlarni tayyorlashda art-menejment asosida pedagogik boshqaruv strategiyalarini takomillashtirish texnologiyasi	499
Qo'chqarova Feruza Maxamatqosimovna	
Kasbiy sifatlarni rivojlantirishda qadriyat yo'naltirilganlik va motivatsion soha o'zaro bog'liqligi.....	503
Qo'shmuratov Bekzod Abduraimovich	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning innovatsion-pedagogik tizimi	509
Rustamova Manzura Mirkamalovna	
"Kelajak soatlari" darslarida yuqori sinf o'quvchilarining o'zini-o'zi tarbiyalash (self-education) kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi.....	517
Saxoddinova Muhayyo Eshmamat qizi	
Generativ sun'iy intellekt vositalari asosida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning metodik imkoniyatlari.....	523
Teshaboyev Ilxomjon Inomjon o'g'li	



BO'LAJAK TARBIYACHILARNING BADIY TAFAKKURINI XALQ OG'ZAKI IJODI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Matrizayeva To'maris Jumamirat qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak tarbiyachilarning badiiy tafakkurini xalq og'zaki ijodi asosida rivojlantirishning nazariy va metodik asoslari yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi folklor matnlarini oliy ta'limdagi kasbiy tayyorgarlik bilan integratsiyalashga xizmat qiladigan bosqichli metodikani ishlab chiqishdan iborat. Normativ hujjatlar, o'zbek folklorshunosligiga oid manbalar hamda 2020-2025-yillarda storytelling, raqamli hikoyalash, ijodiy drama va bo'lajak pedagoglar tayyorgarligi bo'yicha chop etilgan tadqiqotlar kontent va qiyosiy tahlil qilindi. Badiiy tafakkurning obrazli idrok, talqin, originallik, badiiy ifoda va pedagogik ko'chirish komponentlari ajratildi. Motivatsion-madaniy, idrokiy-tahliliy, transformativ-ijodiy, ijroviy-pedagogik hamda refleksiv-baholash bosqichlaridan iborat metodika taklif etildi. Ertak, maqol, topishmoq, tez aytish, afsona va xalq qo'shiqlari bilan ishlash uchun muammoli talqin, muqobil yakun yaratish, personaj nuqtayi nazaridan qayta hikoyalash, dramatzatsiya va raqamli hikoya topshiriqlari tizimlashtirildi. Natijada janr, metod, mahsulot va baholash mezonlarini o'zaro bog'laydigan amaliy model ishlab chiqildi. Metodika bo'lajak tarbiyachining folklor matnini anglashini uning maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashga tayyorligi bilan birga rivojlantirishga yo'naltirilgan. Taklif etilgan yechimdan bolalar adabiyoti, nutq o'stirish metodikasi, maktabgacha pedagogika fanlari va pedagogik amaliyot mazmunini boyitishda foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: bo'lajak tarbiyachi, badiiy tafakkur, xalq og'zaki ijodi, folklor, metodika, ijodiy topshiriq, refleksiv baholash.

Abstract: The article examines the theoretical and methodological foundations for developing future preschool educators' artistic thinking through oral folklore. The study aims to design a staged methodology that integrates folklore texts into professional teacher preparation. Legal documents, Uzbek folklore scholarship, and studies published between 2020 and 2025 on storytelling, digital storytelling, creative drama, and preservice teacher education were analyzed through content and comparative methods. Five components of artistic thinking were identified: imaginative perception, interpretation, originality, artistic expression, and pedagogical transfer. The proposed methodology comprises motivational-cultural, perceptual-analytical, transformative-creative, performative-pedagogical, and reflective-assessment stages. Tasks for working with folktales, proverbs, riddles, tongue twisters, legends, and folk songs were systematized, including problem-based interpretation, alternative endings, retelling from a character's perspective, dramatization, and digital stories. The resulting practical model connects genre selection, teaching method, creative product, and assessment criteria. It is intended to develop both the student's understanding of folklore and the future educator's ability to adapt artistic material to preschool children's age, interests, and experience.

Key words: future preschool educator, artistic thinking, oral folklore, folklore, methodology, creative task, reflective assessment.



Аннотация: В статье раскрыты теоретические и методические основы развития художественного мышления будущих воспитателей средствами устного народного творчества. Цель исследования состоит в разработке поэтапной методики, обеспечивающей интеграцию фольклорных текстов в профессиональную подготовку студентов. Проведен контент-анализ нормативных документов, трудов по узбекской фольклористике и исследований 2020–2025 годов, посвященных сторителлингу, цифровому повествованию, творческой драме и педагогическому образованию. Выделены компоненты художественного мышления: образное восприятие, интерпретация, оригинальность, художественное выражение и педагогический перенос. Предложена методика, включающая мотивационно-культурный, перцептивно-аналитический, трансформативно-творческий, исполнительско-педагогический и рефлексивно-оценочный этапы. Систематизированы задания для работы со сказками, пословицами, загадками, скороговорками, легендами и народными песнями: проблемная интерпретация, создание альтернативной концовки, пересказ с позиции персонажа, драматизация и цифровая история. Разработана практическая модель, связывающая жанр, метод, творческий продукт и критерии оценивания. Методика направлена на одновременное развитие понимания фольклорного текста и готовности будущего воспитателя адаптировать его к возрасту, интересам и опыту дошкольников. Предложенное решение может использоваться на занятиях по детской литературе, методике развития речи, дошкольной педагогике и в ходе педагогической практики студентов.

Ключевые слова: будущий воспитатель, художественное мышление, устное народное творчество, фольклор, методика, творческое задание, рефлексивное оценивание.

KIRISH

Maktabgacha ta'limning vazifasi bolani faqat dastlabki bilimlar bilan qurollantirish emas, balki uning tasavvuri, estetik sezgirligi, nutqi va ma'naviy tajribasini yaxlit rivojlantirishdir. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunida ushbu ta'lim turi bolani intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik va estetik jihatdan rivojlantirishga yo'naltirilgani belgilangan. Shuningdek, har bir bolaning iste'dod nishonalari, qiziqishi va qobiliyatini rivojlantirish uchun teng sharoit yaratish asosiy prinsip sifatida qayd etiladi^[1]. Bu vazifalarni bajarish tarbiyachidan tayyor matnni ifodali o'qish bilangina cheklanmaydigan, obrazni his etish, ko'p ma'noli vaziyatni talqin qilish va bolani mustaqil badiiy faoliyatga olib kirish kompetensiyasini talab etadi.

Xalq og'zaki ijodi ertak, maqol, topishmoq, tez aytish, afsona, rivoyat va qo'shiq kabi janrlarda xalqning estetik tajribasi, obraz yaratish usullari, axloqiy mezonlari va nutq boyligini saqlaydi^[2]. Nomoddiy madaniy merosni ta'limga kiritish madaniy mazmunni o'rganish bilan birga uning avlodlararo uzatilishini ham qo'llab-quvvatlaydi^[3]. Biroq oliy ta'lim amaliyotida folklor materialidan ko'pincha ma'lumot berish, yodlash yoki tayyor syujetni qayta aytish darajasida foydalaniladi. Natijada matnning obrazli imkoniyati kasbiy-pedagogik vazifaga to'liq aylantirilmaydi.

Muammo folklor janrlarining tarbiyaviy ahamiyatini takroran asoslashda emas, balki ular vositasida bo'lajak tarbiyachining badiiy tafakkurini qanday ketma-ketlikda rivojlantirish mumkinligini ko'rsatishda namoyon bo'ladi. Shu bois tadqiqotning maqsadi xalq og'zaki ijodi materialini idrok, tahlil, ijodiy transformatsiya, ijro va refleksiya bilan bog'laydigan metodik modelni ishlab chiqishdir. Tadqiqot savoli quyidagicha belgilandi: folklor matni bilan ishlashning qaysi bosqichlari va topshiriqlari bo'lajak tarbiyachining badiiy tafakkurini hamda ushbu tajribani maktabgacha ta'limga ko'chira olish qobiliyatini yaxlit rivojlantiradi?

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalq og'zaki ijodi va uning ta'lim-tarbiyadagi ahamiyati o'zbek folklorshunos olimlari T. Mirzayev, B. Sarimsoqov, O. Safarov, M. Jo'rayev va M. Alaviya tomonidan keng tadqiq etilgan. Ularning ilmiy ishlarida ertak, maqol, topishmoq, afsona, rivoyat va xalq qo'shiqlarining badiiy-estetik, ma'naviy-tarbiyaviy hamda tafakkurni rivojlantiruvchi imkoniyatlari yoritilgan. Xususan, folklor asarlarining obrazlilik, ramziylik va xalqona tafakkurni aks ettirish xususiyatlari yosh avlodning badiiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim omil sifatida baholanadi.

Xorijiy tadqiqotchilardan Jerome Bruner, Kieran Egan va Maxine Greene asarlarida hikoya, tasavvur va badiiy tajribaning shaxs tafakkurini rivojlantirishdagi o'rni asoslangan. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda storytelling, ijodiy drama va raqamli hikoyalash metodlari bo'lajak pedagoglarning kreativ fikrlashi, mustaqil talqin qilishi va refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Mazkur ilmiy qarashlar xalq og'zaki ijodi namunalarini zamonaviy pedagogik metodlar bilan uyg'unlashtirish bo'lajak tarbiyachilarning badiiy tafakkurini rivojlantirish uchun muhim metodik asos ekanini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-metodik xususiyatga ega. Manbalar korpusiga maktabgacha ta'limga oid normativ hujjat, o'zbek xalq og'zaki poetik ijodi bo'yicha tayanch adabiyot, UNESCOning nomoddiy madaniy merosni ta'limga muhofaza qilish materiallari, OECDning kreativ tafakkur konsepsiyasi hamda 2020-2025-yillarda storytelling, raqamli hikoyalash, ijodiy drama va bo'lajak pedagoglar tayyorgarligi bo'yicha chop etilgan ilmiy ishlar kiri-



tildi [1-12]. Manbalar mavzuga to'g'ridan-to'g'ri aloqadorlik, ta'lim bosqichi, metodning tavsifi va amaliy natija mavjudligi mezonlari bo'yicha tanlandi.

Kontent-tahlilda har bir manbadan to'rtta analitik birlik ajratildi: badiiy-kognitiv harakat, folklor yoki hikoya bilan ishlash usuli, yaratiladigan mahsulot va refleksiya turi. Qiyosiy tahlil og'zaki hikoyalash, yozma transformatsiya, dramatisatsiya hamda raqamli hikoyalashning umumiy va farqli imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qildi. Tematik sintez orqali takrorlanadigan pedagogik mexanizmlar guruhlandi, pedagogik modellashtirish usuli bilan esa maqsad, bosqich, vazifa, mahsulot va baholash o'rtasidagi bog'lanish tuzildi.

Mazkur tadqiqotda "badiiy tafakkur" tushunchasi shaxsning badiiy obrazni sezish va yaxlit idrok etish, matndagi ochiq hamda yashirin ma'nolarni talqin qilish, mavjud syujet yoki timsolni yangicha bog'lash, g'oyani nutqiy, dramatik yoki vizual shaklda ifodalash qobiliyatlari majmui sifatida operatsionallashtirildi. Kreativ tafakkurning g'oya yaratish, baholash va takomillashtirish jarayoni sifatidagi talqini [4] badiiy materialning estetik va madaniy xususiyatlari bilan to'ldirildi. Natijada besh komponent: obrazli idrok, mazmuniy talqin, ijodiy originallik, badiiy ifoda va pedagogik ko'chirish belgilandi.

Tadqiqotda tajriba-sinovga oid sonli ko'rsatkichlar keltirilmaydi. Taklif etilgan model ilmiy manbalardagi dalillarni pedagogik loyihalash asosida birlashtiradi; uning samaradorligini keyingi bosqichda nazorat va tajriba guruhlari, diagnostik topshiriqlar hamda ekspert bahosi yordamida tekshirish nazarda tutiladi. Bunday chegaralash metodik taklif bilan empirik xulosani aralashtirib yubormaslikka imkon beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlilning birinchi natijasi badiiy tafakkurni faqat "ijodkorlik" yoki "tasavvur" bilan tenglashtirish yetarli emasligini ko'rsatdi. Bo'lajak tarbiyachi avvalo matnning ohangi, ritmi, obrazlari va kompozitsion qarama-qarshiligini sezadi; keyin personaj xatti-harakatining sababini izohlaydi; so'ng syujetga muqobil yechim taklif etadi va uni bolaga mos ifoda shakliga ko'chiradi. Demak, badiiy tafakkur reproduktiv qayta hikoyalashdan talqin, yangilash va pedagogik loyihalashga qarab rivojlanadi.

Ikkinchi natija folklor janrlarining bir xil vazifani bajarmasligini aniqlash bilan bog'liq. Ertak syujet va xarakterlar munosabatini qurishga, maqol ixcham obrazdagi umumlashmani ochishga, topishmoq belgilar o'rtasidagi kutilmagan aloqani topishga, tez aytish tovush va ritmi his qilishga, afsona makon hamda tarixiy xotirani badiylashtirishga, xalq qo'shig'i esa ohang, takror va hissiy holatni ifodalashga imkon beradi. Shuning uchun metodika janrni mavzuga bezak sifatida emas, muayyan tafakkur harakatini faollashtiradigan didaktik vosita sifatida tanlashni talab qiladi.

1-jadval: Folklor janrlari va badiiy tafakkurni rivojlantiruvchi topshiriqlar¹

Janr	Yetakchi badiiy harakat	Namunaviy topshiriq	Talabning ijodiy mahsuloti
Ertak	Syujet va obrazlar munosabatini talqin qilish	Voqeani ikkinchi darajali personaj nigohidan qayta hikoyalash	Muqobil hikoya yoki sahna ssenariysi
Maqol va matal	Ko'chma ma'noni umumlashtirish	Bir maqolga mos va zid bo'lgan ikki hayotiy vaziyat yaratish	Miniatyura, dialog yoki vaziyatli kartochka
Topishmoq	Belgi va o'xshatishlar asosida obraz qurish	Javobni aytmasdan yangi uchta badiiy belgi topish	Mualliflik topishmog'i va tasvir
Tez aytish	Tovush, ritm va nutq ohangini his etish	Ritmni saqlagan holda yangi misra qo'shish	Ifodali audio ijro yoki nutqiy o'yin
Afsona va rivoyat	Makon, xotira va ramzni bog'lash	Mahalliy joy yoki buyum haqida badiiy izoh yaratish	Qisqa rivoyat, xarita-hikoya
Xalq qo'shig'i	Hissiy holat, takror va ohangni ifodalash	Qo'shiqdagi kayfiyatni rang, harakat va so'z bilan qayta ifodalash	Musiqiy-plastik kompozitsiya

Uchinchi natija - folklor bilan ishlashning besh bosqichli metodikasidir. Birinchi, motivatsion-madaniy bosqichning vazifasi matnni talabaga begona "tayyor meros" sifatida emas, shaxsiy va kasbiy ma'no uyg'otadigan hodisa sifatida taqdim etishdir. Mashg'ulot bir obraz, maqol, oilada eshitilgan ertak yoki mahalliy rivoyat haqidagi qisqa savoldan boshlanadi. Talabalar bir xil syujetning oilalar va hududlarda qanday variantlarda yashashini qiyoslaydi. Bu jarayon folklorning o'zgaruvchanligi va jonli ijro bilan bog'liqligini anglatadi; ayni paytda talabning avvalgi tajribasi o'quv resursiga aylanadi.

Ikkinchi, idrokiy-tahliliy bosqichda matn avval ifodali tinglanadi yoki o'qiladi, keyin undagi markaziy obraz, qarama-qarshilik, takror, ramz, kulgi yoki mubolag'a aniqlanadi. Savollar "Qahramon nima qildi?" darajasida qolmay, "Nega aynan shu obraz tanlangan?", "Qaysi detal kayfiyatni o'zgartirdi?", "Agar takror olib tashlansa,

1 Muallif tomonidan folklor janrlarining xususiyatlari [2] va hikoyalashga oid tadqiqotlar [5-12] asosida ishlab chiqilgan.



ta'sir qanday o'zgaradi?" kabi tahliliy yo'nalishga o'tadi. Ushbu bosqichda yagona "to'g'ri" talqin berish o'rniga matn bilan asoslangan ikki yoki undan ortiq izoh qiyoslanadi. Shunday dialog talabani mulohazasini dalillash va boshqa nuqtayi nazarni eshitish ko'nikmasini rivojlantiradi.


Uchinchi, transformativ-ijodiy bosqich badiiy tafakkurning markaziy bo'g'inidir. Talaba tayyor syujetni takrorlamaydi, balki uning bir unsurini maqsadli o'zgartiradi: yakunni almashtiradi, voqeani boshqa personaj nigo-hidan beradi, ikki ertak motivini birlashtiradi, maqolga zid vaziyat tuzadi yoki topishmoq uchun yangi belgilar yaratadi. Yozma xalq ertagi yaratish va uni raqamli vositada ifodalash bo'lajak pedagoglarning matn tuzish, obrazni rivojlantirish va o'quv mahsulotini loyihalash faoliyatini birlashtira olishi ko'rsatilgan^[6]. Bolalar adabiyoti asosidagi raqamli hikoyalarni yaratish ham talabani muallif va tomoshabin nuqtayi nazarini uyg'unlashtirishga yordam beradi^[9].

Transformatsiya erkin fantaziya bilan cheklanmaydi. Har bir o'zgarish uchta cheklovga javob beradi: janrning asosiy belgisi saqlanishi, yangi yechim ichki mantiqqa ega bo'lishi va mahsulot maktabgacha yoshdagi bola uchun tushunarli bo'lishi lozim. Masalan, muqobil yakun ertakdagi muammoni tasodifiy yo'qotmasligi, balki qahramonning tanlovi yoki hamkorligi orqali hal qilishi kerak. Cheklov ijodni toraytirmaydi; aksincha, g'oyani baholash va takomillashtirishga majbur etib, originallikni maqsadga muvofiqlik bilan bog'laydi.

To'rtinchi, ijroviy-pedagogik bosqichda yaratilgan matn ovoz, mimika, harakat, qo'g'irchoq, tasvir yoki raqamli vosita orqali bolaga mo'ljallangan faoliyatga aylantiriladi. Storytellingga oid tadqiqotlar raqamli format hikoyani qiziqarli va kommunikativ qilishi mumkinligini, biroq uning pedagogik qiymati texnologiyaning o'zidan emas, mazmun va topshiriq dizaynidan kelib chiqishini ko'rsatadi^[5, 6]. Bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagoglari raqamli hikoya topshiriqlarini tahlil qilgan tadqiqotda dialog, o'qib tushunish hamda tasvirlarni moslashtirish kabi faoliyatlar yosh guruhiga qarab farq qilgani aniqlangan^[7]. Demak, vosita bolalarning yoshi va pedagogik maqsadga bo'ysundiriladi.

Ijroviy bosqichda "mikrofaoliyat" usuli samarali: talaba 7-10 daqiqalik folklor mashg'ulotini guruh oldida o'tkazadi, qolganlar esa bolalar rolda savol beradi yoki syujetni davom ettiradi. Ertakni dramalashtirishda tayyorgarlik, improvizatsiya va muhokama ketma-ketligi saqlanadi. Ijodiy drama bo'lajak pedagoglarning o'ziga ishonchi, muloqoti va o'yinni ta'limga kiritish malakasini rivojlantirishi haqidagi natijalar ushbu yechimni qo'llab-quvvatlaydi^[11]. Storytelling va o'yin uyg'unligi talabaga nazariy tushunchani tasavvurli vaziyatda sinash hamda hamkorlikda murakkabroq mahsulot yaratish imkonini beradi^[12].

Beshinchi, refleksiv-baholash bosqichida talaba "chiroyli chiqdi" kabi umumiy bahodan aniq dalilga o'tadi. U o'z mahsulotida qaysi obraz yetakchi bo'lganini, qaysi detal bolaning tasavvurini faollashtirishi mumkinligini, qaysi joy tushunarsiz yoki ortiqcha ekanini izohlaydi. Tengdosh bahosi "ikki kuchli jihat va bir takomillashtirish taklifi" shaklida beriladi. So'ng talaba matn yoki ijroni qayta ishlaydi va dastlabki hamda yakuniy variantni portfolioga joylaydi. Raqamli hikoya yaratgan bo'lajak tarbiyachilar refleksiyasida o'z imkoniyatini his etish, texnologiyani pedagogik innovatsiyaga qo'shish va yaxshi hikoyaning sifatlarini anglash alohida mavzular sifatida namoyon bo'lgan^[10].



1-rasm: Xalq og'zaki ijodi asosida badiiy tafakkurni rivojlantirishning metodik modeli²

2 Muallif tomonidan tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan. Chizma Word dasturida tahrirlanadi.



Model takroriy ijodiy sikl sifatida ishlaydi: refleksiyadan so'ng talaba talqin yoki ijro yechimiga qaytadi, o'qituvchi esa material murakkabligi va mustaqillik darajasini o'zgartiradi. Dastlab tayanch savollar ko'proq berilib, keyingi sikllarda janr, muammo va ijro shaklini tanlash talabaga o'tkaziladi.

To'rtinchi natija badiiy tafakkurni baholash mezonlarini aniqlashtirishdir. Yakuniy mahsulotning bezagi yoki texnik mukammalligi asosiy ko'rsatkich bo'la olmaydi. Baholash matnini sezishdan boshlab, g'oyani bolalar tajribasiga moslashtirishgacha bo'lgan jarayonni qamrab olishi kerak. Shuning uchun rubrikada beshta mezon, kuzatiladigan indikator va qisqa diagnostik topshiriq birlashtirildi.

2-jadval: **Badiiy tafakkurni baholash mezonlari va daraja tavsiflari**³

Mezon	Kuzatiladigan indikator	Diagnostik topshiriq	Darajani farqlash asosi
Obrazli idrok	Ohang, detal, ritm va obrazni ajratadi	Matndan kayfiyatni o'zgartirgan ikki detalni topish	Past: sanaydi; o'rta: izohlaydi; yuqori: detallar aloqasini asoslaydi
Mazmuniy talqin	Personaj motivi va yashirin ma'noni dalillaydi	Bir xatti-harakatga ikki asosli talqin berish	Talqinlar soni emas, matn dalili va mantiqiy izchillik
Ijodiy originallik	Stereotip bo'lmagan, yaxlit yechim yaratadi	Syujetga janr mantiqini saqlagan muqobil yakun yozish	Yangilik, moslik va ichki mantiq birligi
Badiiy ifoda	So'z, ovoz, harakat yoki tasvirni maqsadli tanlaydi	Bir parchani ikki xil kayfiyatda ijro etish	Ifoda vositasi g'oya va auditoriyaga xizmat qilishi
Pedagogik ko'chirish	Materialni yosh va maqsadga mos faoliyatga aylantiradi	4–5 yoshli bolalar uchun 10 daqiqalik mikrofaoliyat tuzish	Maqsad, savol, ishtirok va xavfsiz muhitning uyg'unligi

Rubrikadan joriy va yakuniy baholashda foydalaniladi. Past darajada talaba tayyor belgilarni qayd etib, namuna asosida ishlaydi; o'rta darajada obrazlar aloqasini izohlaydi va qisman mustaqil yechim taklif etadi; yuqori darajada esa dalillangan talqin, original mahsulot va yoshga mos faoliyat yaratib, uni fikr-mulohaza asosida qayta ishlaydi. Natija yagona ball emas, komponentlar profili bilan ifodalanadi.

Metodika 10-12 soatlik modul ko'rinishida joriy etiladi: dastlab folklor tajribasi va diagnostika, keyin ertak, kichik janrlar va ijodiy drama, so'ng multimodal hikoya, yakunda mikrofaoliyat va portfolio taqdimoti o'tkaziladi. Har bir mashg'ulot "idrok - savol - transformatsiya - ijro - refleksiya" mikrosiklini saqlaydi. Tuzilma tegishli fanlarga va pedagogik amaliyotga integratsiya qilinishi mumkin.

Samaradorlik uch shartga bog'liq: hududiy va oilaviy folklor variantlarini qiyoslashga imkon beradigan ochiq talqin muhiti; dastlabki g'oyani xatosiz tajriba emas, takomillashadigan qoralama sifatida qabul qiluvchi ijodiy xavfsizlik; jonli hikoyalashni asos, raqamli texnologiyani esa ma'noni kuchaytiruvchi vosita sifatida qo'llash muvozanati.

Qiyosiy tahlil modelning ikki jihatini ajratadi: storytelling bo'lajak tarbiyachining o'zi badiiy fikrlaydigan kasbiy faoliyat sifatida qaraladi; raqamli hikoya va ijodiy drama folklorning o'rnini bosmay, uni talqin va ijro etish shakllariga aylanadi. Tadqiqotlarda raqamli hikoyalash talabaning tajribasi, o'ziga ishonchi va metodik qarorini [7, 9, 10], ijodiy drama esa hamkorlik, refleksiya va moslashuvchan pedagogik harakatlarni [11, 12] faollashtirishi qayd etilgan. Mazkur model bu dalillarni o'zbek folklor janrlari va badiiy tafakkur mezonlari bilan birlashtiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalq og'zaki ijodi bo'lajak tarbiyachining badiiy tafakkurini faollashtiradigan metodik vositadir: ertak obraz va syujetni, maqol ko'chma ma'noni, topishmoq o'xshatishni, tez aytish ritmni, afsona madaniy xotirani, xalq qo'shig'i esa hissiy ifodani anglatadi. Besh bosqichli metodika idrok, talqin, original yechim, badiiy ifoda va pedagogik ko'chirishni yagona ijodiy siklda birlashtiradi. Jonli hikoyalash, drama, yozma va raqamli mahsulotlar uyg'unligi talabani qayta hikoyalashdan mualliflik talqini va bolaga mos faoliyat loyihalashga olib boradi. Kelgusi tajriba-sinov ishlari model samaradorligini tekshirishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda O'RQ-595-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni [Elektron manba]. - URL: <https://lex.uz/docs/-4646908> (murojaat sanasi: 21.08.2026).
2. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. - Toshkent: O'qituvchi, 1990.
3. UNESCO. Safeguarding intangible cultural heritage in education [Electronic resource]. - URL: <https://ich.unesco.org/en/education> (accessed: 21.08.2026).

³ Muallif tomonidan badiiy va kreativ tafakkur komponentlari [4] hamda tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan.



4. OECD. PISA 2022 Results (Volume III): Creative Minds, Creative Schools. - Paris: OECD Publishing, 2024. - 301 p. - DOI: 10.1787/765ee8c2-en.
5. Rahiem M.D.H. Storytelling in early childhood education: Time to go digital // International Journal of Child Care and Education Policy. - 2021. - Vol. 15. - Article 4. - DOI: 10.1186/s40723-021-00081-x.
6. Purnama S., Ulfah M., Ramadani L., Rahmatullah B., Ahmad I.F. Digital Storytelling Trends in Early Childhood Education in Indonesia: A Systematic Literature Review // JPUD - Jurnal Pendidikan Usia Dini. - 2022. - Vol. 16, No. 1. - P. 17-31. - DOI: 10.21009/JPUD.161.02.
7. Castillo-Rodríguez C., Santos Díaz I.C., Díaz Lage J.M. Digital storytelling for EFL preschool classroom: tools, activities and themes proposed by preservice teachers // ESPIRAL. Cuadernos del Profesorado. - 2022. - Vol. 15, No. 31. - P. 82-93. - DOI: 10.25115/ecp.v15i31.8087.
8. Aktay E.G. Writing a Folktale as an Activity of Written Expression: Digital Folktales with StoryJumper // Educational Policy Analysis and Strategic Research. - 2020. - Vol. 15, No. 3. - P. 159-185. - DOI: 10.29329/epasr.2020.270.8.
9. Ulusoy M. Pre-Service Teachers as Creators and Students as Viewers of Children's Literature-Related Digital Stories: A Formative Experiment // International Journal of Progressive Education. - 2020. - Vol. 16, No. 6. - P. 365-389. - DOI: 10.29329/ijpe.2020.280.23.
10. Fadzil H.M., Basar A., Ahmad Z. Digital storytelling in early childhood education: a pedagogical experience from pre-service teachers // Journal of Early Childhood Teacher Education. - 2025. - Online first. - DOI: 10.1080/10901027.2025.2581017.
11. Arda Tuncdemir T.B. The power of creative drama: integrating playful learning approaches in teacher education // Research in Drama Education: The Journal of Applied Theatre and Performance. - 2025. - Vol. 30, No. 3. - P. 534-555. - DOI: 10.1080/13569783.2025.2457745.
12. Zhulamanova I., Bernhardt L. Storytelling as a teaching strategy for reinforcing the pedagogical value of play // Journal of Education for Teaching. - 2025. - Vol. 51, No. 3. - P. 599-601. - DOI: 10.1080/02607476.2024.2362193.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.